



"TASDIQLAYMAN"

**Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
rektori**

O.A.Ataniyazova

2023 yil

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti tarkibidagi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining NIZOMI

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Davlat oliy ta'lim muassasalarida Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risi"dagi 2023-yil 27-mart 72-sonli buyrug'ining 1-bandiga muvofiq qayta ishlab chiqilgan bo'lib, bevosita Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti tarkibiga kiradi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining maqomi, asosiy maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi (keyingi o'rinlarda matnda – Bo'lim deb yuritiladi) Qoraqalpog'iston tibbiyot institutining (keyingi o'rinlarda matnda – institut deb yuritiladi) tuzilmasiga kiradi.
3. Mazkur Nizom bo'lim xodimlari tomonidan o'ziga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.
4. Bo'limning asosiy maqsadi institut talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganib borish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish, institutni ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va uning natijalari bo'yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish va oldini olish choralari ko'rishdan iborat.
5. Bo'lim boshlig'i Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda matnda – vazirlik deb yuritiladi) bilan kelishilgan holda institut rektori buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Bo'lim bosh mutaxassislari institut rektori buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.
6. Bo'lim o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda institut rektorining

buyruqlari va qonuniy ko'rsatmalariga, shuningdek Bo'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq olib boradi.

7. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi to'g'ridan to'g'ri vazirlikning Ta'lim muassasalari faolyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamentiga hisobdor hisoblanadi.

8. Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bevosita oliy ta'lim muassasasi rahbariga bo'ysinadi va mazkur bo'lim faolyatiga prorektor, dekan va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

II. BO'LIMNING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

9. Bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

institut kadrlar tayyorlash sifati nazorat qilish va monitoringini olib borish;

institut talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlari (DTS)ga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib borish va tahlil qilish;

ta'lim sifatini ta'minlay oladigan professor-o'qituvchilar tarkibini shakillantirish, jumladan salohiyatli o'qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati malakasini oshirish imkonini beradigan (ob'ektiv) shaffof tashkiliy mexanizimlarni yaratish;

professor-o'qituvchilarning dars berishi sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;

institutni ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

o'quv jarayinini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligini va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);

malaka talablari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;

bitiruvchi talabalarining kadrlar bozoridagi o'rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakillantirish;

o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorat talab darajasida yo'lga qo'yilganligi o'rganib borish;

dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarining jalb etilganligi o'rganib borish;

talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlanganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlash;

professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish;

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;

axborot-resurs markazida talaba va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo'yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;

mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilishini o'rganish va tahlil qilish (yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta'limni tashkil etish uchun talablarning qo'yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta'minlash);

institutda plagiatga qarshi dasturlarning joriy etilishini ta'minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko'chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish);

vazirlikning topshirig'iga muvofiq, boshqa oliy ta'lim muassasalari faolyatini o'rganishda ishtirok etish;

ta'lim sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarning holatini monitoring qilish va aniqlangan muammolar va kamchiliklar yuzasidan tegishli tarkibiy tuzilmalarga takliflar berish;

institut professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni institut rektoriga ma'lum qilish;

institutning o'quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlar rejalarining bajarilishini monitoring qilish;

ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

institutda talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olingan holda tashkil etilganligini va uning samarasini nazorat qilish;

institut reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda, o'tkaziladigan attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish;

institutdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

institut reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;

institutning tegishli tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlari va treninglarni o'tkazish;

institutda jamoatchi ekspertlar bazasini shakllantirish va ular bilan qo'yilgan vazifalar doirasida seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish;

o'quv jarayoni bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion hamkorlik, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarning amaliy tatbig'i masalalari monitoringini yuritish;

institut Kengashida, davra suhbatlari va anjumanlarda bo'lim tomonidan ta'lim sifatini oshirishga oid amalga oshirilgan o'rganish va monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish;

ta'lim sifati holatini o'rganish natijalariga asoslanib tegishli takliflarni institut rahbariyatiga taqdim etish.

10. Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

institutda ta'lim sifatini DTS va malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida tizimli nazoratni tashkil etish bo'yicha faoliyatni va chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

asosiy faoliyatini belgilangan mezonlar asosida ta'lim sifatini aniqlash, uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yo'nalishlarini belgilab berishga va bu jarayonni muvofiqlashtirishga qaratadi;

ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanganligini o'rganadi;

talabalarning darslik va o'quv qo'llanmalari (shu jumladan, elektron darslik va qo'llanmalar) bilan ta'minlanganlik darajasini va zamonaviy talablarga mosligini ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar hamda tillar kesimida tahlil qiladi;

institut professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qiladi yoki ularning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganadi va xulosalarni institut rektoriga ma'lum qiladi;

o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holatini o'rganadi va ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflarni beradi;

ilmiy-tadqiqot ishlarining iste'molchilar talablaridan kelib chiqqan holda olib borilayotganligini, institut professor-o'qituvchilari va talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlaridagi (fundamental, amaliy, innovatsion va h.k. tadqiqotlar kesimida) ishtirokini, ilmiy ishlarining ishlab chiqarishga tatbig'ini moliyalashtirish manbalari holatlari bo'yicha o'rganadi;

institut tarkibiy tuzilmalarining zamonaviy moddiy-texnik ta'minoti, o'quv-laboratoriya jihozlari, kompyuterlar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanilish darajasini tahlil qiladi;

ta'limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasini, institutning kadrlar tayyorlash va hamkorlikda ilmiy texnologik echimlar yaratishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini (samarali yoki samarasizligini) o'rganadi;

o'z sohasi bo'yicha ilg'or texnologiyalarning rivojlanishiga qarab ta'lim jarayonlarini amalga oshirish uchun pedagog kadrlarning bevosita ishlab chiqarishda malakasi oshirilishini (muntazam yoki muntazam emasligi) hamda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha iste'molchilar bozorining o'rganilganligini (marketing xizmati asosida) tahlil qiladi;

ta'lim jarayoniga ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari hamda xorijiy davlatlar malakali mutaxassislarining jalb etilishini tahlil qiladi;

talabalar bajarayotgan bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyasi mavzularining dolzarbligi, sifati va ularni ishlab chiqarishga qay darajada joriy qilinganligini o'rganadi;

institutning tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil tadqiqotchi instituti orqali oliy malakali kadrlar tayyorlash faoliyatini tahlil qiladi;

institutning ta'lim muassasalari bilan hamkorlik faoliyatini tahlil qiladi;

institutda ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi, mazmuni va uning bajarilishini (bayonnomalar asosida), professor-o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarga jalb etilganligini, ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni, pedagog xodimlarning axloqiy sifatlarini (so'rovnomalar asosida) o'rganadi;

institut axborot-resurs markazi fondining zarur adabiyotlar bilan ta'minlanganligini, ulardan foydalanayotgan professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini aniqlaydi;

bitiruvchilarning ta'limni keyingi bosqichiga o'qishga kirishi yoki ishga joylashishlarini tahlil qiladi;

ota-onalar va ish beruvchilar hamda boshqa manfaatdor shaxslarning homiylik kengashi faoliyatidagi va ta'lim jarayonidagi ishtirokini tahlil etadi;

professor-o'qituvchilar reytingini aniqlash bo'yicha takliflar kiritadi;

talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini davriy ravishda monitoring qiladi;

institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar tomonidan xorijiy tillarni o'rganishning samaradorligi bo'yicha monitoring yuritadi;

talabalar bilimini baholash bo'yicha nazorat natijalarini tanlama tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini va shaffofligini o'rganadi va takliflar tayyorlaydi;

yakuniy davlat attestatsiyalarini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilgan holda o'tkazilganligini va uning natijalarini tahlil qiladi;

institutning tarkibiy tuzilmalarida (fakultet, kafedra, bo'lim, markaz, akademik litsey) pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash maqsadida ichki monitoringni o'tkazadi, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlaydi, ularni institut rektoriga o'rnatilgan tartibda taqdim qiladi;

institutda kadrlar tayyorlash sifati va talabalar bilim darajasini oshirish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

institut faoliyatini xalqaro ta'lim sifatini aniqlash indikatorlari bilan taqqoslash asosida uning jahon reytingida munosib o'rin egallashi uchun tegishli tarkibiy tuzilmalar bilan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

institutda xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilganligini, xorijiy mamlakatlar bilan shartnoma asosida talaba, tayanch doktorant, doktorant, ilmiy xodimlar almashinuvini, fan sohasida xalqaro ilmiy tadbirlarning tashkil etilishini (seminar, anjuman, simpozium va h.k.), chet el grantlari asosida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini, xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini tahlil qiladi va bu sohani rivojlanishiga takliflar beradi va amaliy yordam ko'rsatadi;

bo'lim xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida, institut hisobidan rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli o'quv va ilmiy markazlari tajribasini o'rganadi va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etadi;

Vazirlik tomonidan amalga oshiriladigan institut reytingini aniqlash va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda hamda boshqa topshiriq va vazifalarni bajarishda ishtirok etadi;

institut reytingini xalqaro darajaga ko'tarish uchun tajribali professor-o'qituvchilar va yosh mutaxassislarni chet el tajribasini o'rganish maqsadida xizmat safariga yuborish va ularning natijasini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda institut rahbariyati bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi;

respublikada va xorijiy davlatlardagi ta'lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib boradi va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

institutda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha olib borilgan o'rganishlar natijalari asosidagi takliflarni institut rahbariyatiga taqdim etadi.

III. BO'LIMNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

11. Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

Bo'lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun institut tarkibiy tuzilmalaridan zarur ma'lumotlar va materiallarni olish;

institut va uning tarkibiy tuzilmalarida talabalar, tinglovchilar va o'quvchilarni o'qitish sifatini, ta'limning tegishli turlari bo'yicha ishchi o'quv rejalari va fanlarning ishchi dasturlarini DTSlariga, davlat talablariga, malaka talablariga va o'quv reja hamda fanlarning namunaviy dasturlariga muvofiqligini belgilangan tartibda o'rganish;

institutda attestatsiya jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish va uning o'z vaqtida bajarilishini nazoratga olish;

institutda ta'lim sifatiga oid qabul qilingan buyruqlar, farmoyishlar va boshqa qarorlarning etarli darajada ijrosi ta'minlanmaganligi aniqlanganda, mas'ullarga nisbatan tegishli choralar ko'rish uchun rahbariyatga takliflar kiritish;

institutda ijtimoiy muhitni, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazilishini tashkil qilish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati muammolari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, simpoziumlar, seminar va o'quvlarda ishtirok etish;

belgilangan tartibda institut Kengashiga saylash va saylanish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

12. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:

xizmat vazifalarini vijdonan bajaradi va o'z sha'niga dog' tushirmaydi;

Davlat inspeksiyasiga taqdim qilinayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga hamda institutning ishchi o'quv rejalari va fanlarning ishchi dasturlarini tayyorlash sifati, bitiruvchilarning yakuniy attestatsiya va reyting baholari xolisligini belgilangan tartibda nazoratini tashkil etishga javob beradi.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 yanvardagi 12-sonli «Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ijro intizomiga, o'quv va mehnat intizomiga, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalar, institutning Ustavi, Ichki tartib hamda Odob-ahloq qoidalariga rioya etadi.

IV. BO'LIM ISHINI TASHKIL ETISH

14. Bo'lim institutning belgilangan shtatlari doirasida institut rektori buyrug'iga muvofiq tashkil etiladi.

Bo'lim yuridik shaxs maqomiga ega emas.

15. Bo'lim boshlig'i lavozimiga nomzodlar institut rektori buyrug'i asosida vazirlik bilan kelishilgan holda tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Bo'lim xodimlariga nomzodlar institut rektori buyrug'i bilan bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

16. Bo'lim xodimlarining oylik ish haqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagi Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga (*O'zbekiston Respublikasi QT, 2008 y., 8-son, 40-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 33-son, 852-modda*) muvofiq belgilanadi va institut tomonidan to'lanadi. Bo'lim xodimlariga institut xodimlari lavozimlari uchun belgilangan moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi.

17. Bo'lim faoliyatiga rahbarlik qilish bo'lim boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

Bo'lim boshlig'i bo'lmagan (ta'til, betoblik, xizmat safari) davrda uning vazifasini bajarish bosh mutaxassisning biriga yuklatiladi.

18. Bo'lim o'z faoliyatini yuritishda vazirlikka va institut rektoriga bo'ysunadi.

19. Bo'limga ta'lim sifatini nazorat qilish sohasida amaliy-metodik ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassislar, shuningdek, ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslar tarkibidan malakaviy talablarga muvofiq belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

V. BO'LIM XODIMLARINING MALAKA TALABLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI

20. Bo'lim boshlig'i lavozimiga qo'yidagi malaka talablari qo'yiladi:

oliy ma'lumotli, ilmiy darajaga yoki ta'lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyati jihatidan) ega bo'lishi;

ta'lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

ta'lim muassasalaridagi pedagogik va ta'lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta'lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo'lishi;

institutning tarkibiy bo'linmalari faoliyati xususiyatlarini bilishi;

ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi;

o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunishi, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlash va ularga vazirlikning grifini olish tartibini bilishi;

institut rahbar va pedagog xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini bilishi;

o'zbek, rus tillarini va xorijiy tillardan birini mukammal bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

21. Bo'lim boshlig'ining asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

bo'lim faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, vazirlik va institut rektori bo'yruq va ko'rsatmalari asosida tashkil etish;

bo'limning joriy va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning DTS, malaka talablari, o'quv rejaları va fan dasturlari bilan ta'minlanganligini tahlil etish va ularni ekspertiza qilish;

institutda ta'lim jarayoni sifatini, uning o'quv adabiyotlari va o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganish;

institut talabalari bilimlarining DTSga muvofiqligini o'rganib borish, tahlil qilish;

ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash;

kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish;

institutni ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish, natijalari bo'yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ma'lumotlarni institut rektoriga hamda vazirlikka taqdim etish;

ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida zamonaviy usullar va uslublardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

ta'lim sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarning holatini monitoring qilish va aniqlangan muammolar va kamchiliklar yuzasidan tegishli tarkibiy tuzilmalarga takliflar berish;

institutning tarkibiy tuzilmalarida (fakultet, kafedra, bo'lim, markaz, akademik litsey) pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash

yo'nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash maqsadida ichki monitoringni o'tkazish, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, aniqlanagan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha institut rahbariyatiga takliflar kiritish;

institut professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni institut rektoriga ma'lum qilish;

ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

institutda talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olingan holda tashkil etilganligini va uning samarasini nazorat qilish;

vazirlik topshirig'iga binoan institut reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda, o'tkaziladigan attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish;

ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda institutda aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan nazorat o'rnatish;

HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);

bo'lim xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, xalqaro loyihalar va institut hisobidan rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli o'quv va ilmiy markazlari tajribasini o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

institut reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;

institut tegishli tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv seminarlar va treninglar o'tkazish;

o'quv jarayoni bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion hamkorlik, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarning amaliy tatbig'i masalalari monitoringini yuritish;

institut Kengashida, davra suhbatlari va anjumanlarda bo'lim tomonidan ta'lim sifatini oshirishga oid amalga oshirilgan o'rganish va monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish;

bo'lim xodimlarining lavozim vazifalari bo'yicha topshiriqlarni bajarish natijalariga ko'ra ularni rag'batlantirish yoki intizomiy chora ko'rish haqida vazirlikka va institut rahbariyatga o'rnatilgan tartibda taklif va tavsiyalar kiritish;

ta'lim sifatini nazorat qilish sohasida bo'limga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

22. Bo'lim mutaxassisi lavozimiga qo'yidagi malaka talablari qo'yiladi:

oliy ma'lumotli, ta'lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik jihatidan) ega bo'lishi;

ta'lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

pedagogik va ta'lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta'lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo'lishi;

ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi;

o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini tushunishi, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlashga qo'yilgan talablarni bilishi;

o'zbek tilini mukammal, rus va xorijiy tillardan birini etarli darajada bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

23. Bo'lim mutaxassisining asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat inspeksiyasi boshlig'i va institut rektori bo'yruq va ko'rsatmalari hamda bo'lim boshlig'ining topshiriqlari asosida tashkil etish;

bo'limda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ish yuritish va ijro nazoratini ta'minlash;

institutning o'quv, ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlar rejalarining bajarilishini monitoring qilish;

institutning tarkibiy tuzilmalarida pedagog xodimlarning kasbiy malakasini, shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlarida sifat darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ichki baholash jarayonida ishtirok etish va hisobot tayyorlash;

talabalar bilimni baholash jarayonini tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini, shaffofligini va sifat darajasini baholash;

institutdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazishni tashkil etish va ularning natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash;

jamoatchi ekspertlar bazasini shakllantirish va ular bilan qo'yilgan vazifalar doirasida seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish;

attestatsiya, ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda institutda aniqlangan kamchilik va nuqsonlarning o'z vaqtida bartaraf etilishini ta'minlash choralarini ko'rish;

bo'lim faoliyatiga oid me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish;

respublikada va xorijiy davlatlardagi ta'lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib borish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

Davlat inspeksiyasining topshirig'iga binoan bo'lim boshlig'i ruxsati bilan institut reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda, o'tkaziladigan attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

24. Bo'lim xodimlari o'z zimmasiga yuklatilgan va funksional vazifalari doirasida Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladigan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javob beradi.

25. Bo'lim faoliyatiga oid nizolar, o'zaro munozaralar olib borish orqali yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

26. Ushbu Nizom Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti Kengashining 2023-yil 12-apreldagi majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

27. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda institut Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.